

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
MOSCOW • RUSSIA



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENGII O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIQIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQQA IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEKANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIY TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEKANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODEL.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhtijan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA AUDITORLIK TANLAMASINING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Muqumov Jasur Bosimovich	
BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	415
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TANNARXNI ANIQLASHNING NAZARIY MASALALARI.....	420
Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISHNING PROAKTIV TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI TAHLILI	424
Xurshida Maxmadaminova	
ZAMONAVIY DASTURLAR YORDAMIDA MULTIMODAL TASHISHLAR VA LOGISTIKA TIZIMLARI SOHASIDAGI ILMIY TADQIQOTLARNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARINI ANIQLASH	430
Zohidov Muhiddin G'ofurjon o'g'li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA AGROBIZNESNI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	436
Noraliyeva Gavhar Murodqulovna, Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSİYALARNING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI EKONOMETRIK TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	441
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA QAYTA ISHLASH IMKONIYATLARI.....	447
Xamdamov Amriddin, Madig'oyibov Jamshid	
РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЖИДКОГО И ТВЁРДОГО АНТИГОЛОЛЁДНОГО РЕАГЕНТА ИЗ МЕСТНЫХ СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ	452
Дадаходжаев Абдулла, Ахмедов Мансур, Гуро Виталий	
АНАЛИЗ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТЕХНИКИ ДЛЯ УПЛОТНЕНИЯ ДАМБ	457
Шомирзаев Эргаш Хурсанович	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLLIGINI OSHIRISHDA O'ZINI O'ZI BAND QILISH TIZIMINING ROLI	465
Zakirov Mir Timur Zakir o'g'li	
HUDUDIY MEHNAT BOZORINI RAQAMLI BOSHQARISH: ISH O'RNI SIFATI PASPORTI VA ELEKTRON ISH O'RINLARI XARITASI ARHITEKTURASI.....	470
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI XIZMATLARIDA INNOVATSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI VA ULARNI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	476
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
HUDUDLARDA QURILISH XIZMATLARI SOHASINI RIVOJLANISHINING IQTISODIY HOLATI TAHLILI .	483
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ОЦЕНКИ И РАЗВИТИЯ ПОТЕНЦИАЛА РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И ХОЗЯЙСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ЕГО ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	491
Хусаинов Равшан Рахимович	
THE COMPOSITION OF SOLID PROPELLANT IN MODEL ROCKETS AND ITS EFFECT ON FLIGHT PERFORMANCE: A COMPARATIVE STUDY OF BIOMASS CATALYSIS AND GRAIN GEOMETRY	502
Karimov Mustafo, Berdiyev Usmon	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH DARAJASINI BAHOLASHNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA METODIK YONDASHUVLARINING BUGUNGI HOLATI	508
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОДЕЖДЫ ДЛЯ ВОЕННО-ПОЛЕВЫХ СЛУЖАЩИХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАНОТЕХНОЛОГИЙ.....	515
Мирфаязова Нилуфар, Н. Боратова	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVLAT TOMONIDAN KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH HOLATI.....	524
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
DAROMADLAR TAQSIMOTI VA AYIRBOSHLASH MUNOSABATLARIDA IQTISODIY ADOLAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	527
Alimov Nasimjon Hoshimovich	



DAROMADLAR TAQSIMOTI VA AYIRBOSHLASH MUNOSABATLARIDA IQTISODIY ADOLAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH MEZONLARI

Alimov Nasimjon Hoshimovich

O'zLiDeP Amaliy loyihalar va siyosiy ta'lim markazi rahbari,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: nasimjon1@mail.ru



Annotatsiya. Mazkur maqolada daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolatning nazariy asoslari, ilmiy yondashuvlari hamda uni baholash mezonlari kompleks tahlil qilingan. Iqtisodiy adolatga oid klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar qiyosiy tahlil qilinib, daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarini bir-biri bilan uzviy bog'langan yagona iqtisodiy tizim sifatida baholash zarurligi asoslangan. Shuningdek, iqtisodiy adolatni faqat daromadlarning yakuniy taqsimoti orqali emas, balki iqtisodiy imkoniyatlar, institutlar sifati, bozor munosabatlarining shaffofligi, axborot tengligi va real farovonlik natijalari bilan birgalikda baholash zarurligi asoslab berilgan. Taklif etilgan nazariy yondashuvlar iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirish, iqtisodiy adolatni baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda kelgusida daromadlar taqsimoti va ijtimoiy-iqtisodiy adolat sohasidagi amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy adolat, daromadlar taqsimoti, ayirboshlash munosabatlari, iqtisodiy tengsizlik, imkoniyatlar adolati, institutsional tenglik, bozor adolati, baholash mezonlari, daromadlar differentsiatsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy adolat.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of economic justice, the scholarly approaches to its study, and the criteria for its assessment in income distribution and exchange relations. Based on a comparative analysis of classical and contemporary economic theories of justice, the study substantiates the need to consider income distribution and exchange relations as an integrated economic system whose elements are closely interconnected. It also argues that economic justice should be assessed not only in terms of the final distribution of income but also by considering economic opportunities, institutional quality, transparency in market relations, equality of access to information, and actual welfare outcomes. The proposed theoretical approaches provide a foundation for advancing economic theory, improving the methodology for assessing economic justice, and further developing applied research on income distribution and socioeconomic justice.

Keywords: economic justice, income distribution, exchange relations, economic inequality, equality of opportunity, institutional equality, market justice, assessment criteria, income differentiation, socioeconomic justice.

Аннотация. В данной статье проведён комплексный анализ теоретических основ экономической справедливости, научных подходов к её исследованию и критериев её оценки в сфере распределения доходов и обменных отношений. На основе сравнительного анализа классических и современных экономических теорий справедливости обоснована необходимость рассмотрения распределения доходов и обменных отношений как единой экономической системы, элементы которой тесно взаимосвязаны. Кроме того, обоснована необходимость оценки экономической справедливости не только с точки зрения конечного распределения доходов, но и с учётом экономических возможностей, качества институтов, прозрачности рыночных отношений, равенства в доступе к информации и реальных результатов в сфере благосостояния. Предложенные теоретические подходы служат основой для развития экономической теории, совершенствования методологии оценки экономической справедливости, а также дальнейшего развития прикладных исследований в области распределения доходов и социально-экономической справедливости.

Ключевые слова: экономическая справедливость, распределение доходов, обменные отношения, экономическое неравенство, справедливость возможностей, институциональное равенство, рыночная справедливость, критерии оценки, дифференциация доходов, социально-экономическая справедливость.

KIRISH

Daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolatni ta'minlash iqtisodiyot nazariyasining doimiy ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti, bir tomondan, mehnat unumdorligi, malaka, mulk, tadbirkorlik tashabbusi va tavakkalchilikdagi farqlarga muvofiq daromadlar differentsiatsiyasini vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlar tengsizligi, bozor qudrati, axborot asimmetriyasi va institutsional imtiyozlar asoslanmagan iqtisodiy tafovutlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois iqtisodiy o'sish natijalarining jamiyat a'zolari o'rtasida qanday taqsimlanishi va shakllangan daromadlarning bozor ayirboshlash jarayonida qanday real farovonlikka aylanishi nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda daromadlar taqsimoti asosan funksional va shaxsiy taqsimot, tengsizlik, kambag'allik hamda davlatning qayta taqsimlash siyosati doirasida o'rganiladi. Ayirboshlash munosabatlari esa ko'pincha talab va taklif, narx, bozor muvozanati, shartnoma erkinligi va ekvivalentlik kategoriyalari orqali tahlil qilinadi. Biroq taqsimot va ayirboshlash munosabatlarini bir-biridan ajratilgan holda o'rganish iqtisodiy adolatning yaxlit mazmunini to'liq ochib bermaydi. Chunki taqsimot jarayonida shakllangan nominal daromadning haqiqiy iqtisodiy qiymati tovar va xizmatlarning narxi, sifati, bozordagi raqobat darajasi, axborotning ochiqqligi hamda iste'molchining tanlov imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli platformalar, algoritmik narx belgilash, mehnat munosabatlarining yangi shakllari, ma'lumotlar konsentratsiyasi va bozorlarning monopollashuvi iqtisodiy adolatning an'anaviy mezonlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Daromadlarning yakuniy taqsimotini baholashning o'zi yetarli bo'lmay, iqtisodiy faoliyatga kirish imkoniyatlari, taqsimot va ayirboshlash jarayonlarining xolisligi, shuningdek, ularning real farovonlikka ta'sirini birgalikda tadqiq etish zarurati kuchaymoqda.

Shu nuqtai nazardan, maqoladan ko'zlangan maqsad daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolatning nazariy mazmunini ochib berish, mavjud yondashuvlarni umumlashtirish hamda uni baholashning kompleks mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun daromadlar taqsimoti va ayirboshlash adolati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslash, iqtisodiy tengsizlikning manbalarini tasniflash, asoslangan differentsiatsiyani asoslanmagan tengsizlikdan ajratish va iqtisodiy adolatni kirish, jarayon hamda natija o'lchovlarida baholash vazifalari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Daromadlar taqsimoti va iqtisodiy adolat muammosi iqtisodiy tafakkur tarixida ishlab chiqarilgan qiymatning mehnat, kapital, yer egalari va boshqa iqtisodiy subyektlar o'rtasida qanday taqsimlanishi masalasi bilan bog'liq holda shakllangan. Klassik iqtisodiy ta'limot vakillari taqsimotni ijtimoiy sinflar daromadlarining shakllanish qonuniyatlari orqali tahlil qilgan bo'lsalar, neoklassik yondashuvda ishlab chiqarish omillari daromadlari ularning chekli unumdorligi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuvlar taqsimotning iqtisodiy mexanizmini ochib bersa-da, imkoniyatlar tengligi, institutlarning xolisligi va bozor munosabatlaridagi kuchlar nomutanosibligini to'liq qamrab olmaydi.

J. Roulz adolatni jamiyatning asosiy institutlari orqali huquq, imkoniyat va ne'matlarni taqsimlash tamoyili sifatida talqin qiladi. Uning «adolat — xolislik sifatida» konsepsiyasiga ko'ra, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar, birinchidan, lavozim va imkoniyatlarning barcha uchun ochiqqligi, ikkinchidan esa ularning jamiyatdagi eng kam ta'minlangan qatlam manfaatlariga xizmat qilishi shartidagina asoslangan hisoblanadi. Shu tariqa Roulz taqsimot natijalarini dastlabki imkoniyatlar va institutlarning adolatligi bilan bog'laydi.

R. Nozik taqsimotning muayyan yakuniy holatini emas, balki mulkning qonuniy o'zlashtirilishi, ixtiyoriy o'tkazilishi va avvalgi adolatsizliklarni tuzatish jarayonini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Uning huquqiy egalik konsepsiyasida taqsimot jarayoni ixtiyoriy va qonuniy bo'lsa, yuzaga kelgan daromadlar farqi adolatli deb baholanadi. Mazkur yondashuv shaxsiy erkinlik va mulk huquqining ahamiyatini kuchaytirgan bo'lsa-da, dastlabki resurslar taqsimoti, bozor qudrati hamda tomonlarning real iqtisodiy imkoniyatlaridagi farqlarni yetarlicha hisobga olmasligi bilan cheklanadi.

A. Sen iqtisodiy adolatni shaxs egalik qilayotgan resurs yoki daromad hajmi bilan emas, balki uning o'zi qadrlaydigan hayot tarzini amalga oshirish imkoniyati bilan baholashni taklif etadi. Imkoniyatlar yondashuviga muvofiq, bir xil daromad turli sog'liq, ta'lim, yosh va ijtimoiy sharoitlarga ega shaxslar uchun turlicha real natija beradi. Shu sababli daromad taqsimotini baholashda insonning resurslarni real farovonlik va faoliyat erkinligiga aylantira olish qobiliyati hisobga olinishi lozim.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda tengsizlikni shakllantiruvchi tarkibiy omillarga alohida e'tibor qaratilgan. T. Piketti daromad va boyliklarning uzoq muddatli taqsimotiga oid ma'lumotlar asosida kapitaldan olinadigan daromad sur'ati iqtisodiy o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan sharoitda boylikning konsentratsiyalashuvi kuchayishini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlari joriy daromadlar tengsizligini mulk, meros va kapital aktivlarining taqsimlanishidan ajratilgan holda tahlil qilish mumkin emasligini asoslaydi.



Ayirboshlash munosabatlaridagi adolat masalasi bozor bitimlarining ixtiyoriyligi, ekvivalentligi, axborot shaffofligi va tomonlarning muzokara kuchiga bog'liq. J. Stiglits axborotning nomukammal va notekis taqsimlanganligi narx, shartnoma, mehnat, kredit va sug'urta bozorlari natijalarini o'zgartirishini hamda erkin ayirboshlashning o'zi ijtimoiy jihatdan maqbul natijani kafolatlamasligini ko'rsatgan.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlarda iqtisodiy adolatning taqsimot natijalari, mulk huquqi, imkoniyatlar tengligi, inson salohiyati, institutlar sifati va axborot asimmetriyasi kabi alohida jihatlari chuqur tahlil qilingan. Biroq daromadlarning shakllanishi va taqsimlanishini ularning ayirboshlash jarayonida real tovarlar, xizmatlar va farovonlikka aylanishidan ajratmagan holda baholashga qaratilgan yagona yondashuv yetarlicha tizimlashtirilmagan. Xususan, iqtisodiy faoliyatga kirish imkoniyatlari, taqsimot jarayonining xolisligi, bozor bitimlarining ekvivalentligi va yakuniy farovonlik natijalarini birlashtiruvchi kompleks mezonlarga ehtiyoj mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot iqtisodiyot nazariyasida qo'llaniladigan umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot usullari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy adolat, daromadlar taqsimoti, ayirboshlash munosabatlari, institutsional iqtisodiyot va imkoniyatlar tengligiga oid klassik hamda zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli orqali iqtisodiy adolatning mazmun-mohiyati va tarkibiy elementlari nazariy jihatdan umumlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlari ijtimoiy takror ishlab chiqarishning o'zaro bog'liq bosqichlari sifatida yaxlit iqtisodiy tizim doirasida tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida klassik, neoklassik, institutsional va zamonaviy ijtimoiy adolat nazariyalarining umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari asosida iqtisodiy adolatning umumiy qonuniyatlari hamda ularning daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida namoyon bo'lish xususiyatlari asoslandi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi iqtisodiy adolatni faqat daromadlarning yakuniy taqsimoti nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy imkoniyatlar, institutsional muhit, bozor munosabatlarining shaffofligi va iqtisodiy natijalarning o'zaro uyg'unligi asosida kompleks baholash tamoyiliga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarini tahlil qilish iqtisodiy adolatni faqat jamiyatda shakllangan daromadlar nisbati yoki tengsizlik darajasi bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. Daromadlarning shakllanishi, iqtisodiy subyektlar o'rtasida taqsimlanishi va ayirboshlash jarayonida real ne'matlarga aylanishi o'zaro bog'langan yagona iqtisodiy jarayonni tashkil etadi. Shu sababli taqsimotdagi adolat ayirboshlash munosabatlarining mazmunidan, ayirboshlashdagi adolat esa subyektlarning dastlabki daromadi va iqtisodiy imkoniyatlaridan ajratilgan holda baholanishi mumkin emas.

Daromadlar taqsimoti va ayirboshlash adolati o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Daromadlarning birlamchi taqsimoti mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati va boshqa ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy jarayondagi ishtiroki asosida amalga oshadi. Bunda daromadlar o'rtasida muayyan tafovutlarning yuzaga kelishi bozor iqtisodiyotining obyektiv xususiyati hisoblanadi. Mehnat unumdorligi, malaka, mas'uliyat, innovatsion faollik, sarmoya va tavakkalchilik darajasidagi farqlar daromadlarning asoslangan differentsiatsiyasini vujudga keltiradi. Biroq daromadlar farqi shaxsning iqtisodiy hissi bilan emas, balki iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanishi, institutsional imtiyozlar, monopol mavqe, axborot ustunligi, institutsional nomutanosibliklar yoki bozorga kirish to'siqlari bilan belgilansa, bunday tafovut iqtisodiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan tengsizlikka aylanishi mumkin.

Demak, daromadlar o'rtasidagi har qanday farqni adolatsizlik, tenglashtirishni esa adolat deb baholash to'g'ri emas. Asosiy masala farqning miqdoridagina emas, balki uning manbasi, shakllanish mexanizmi va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlaridadir.

Ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolat bozor bitimining faqat rasmiy ixtiyoriyligi bilan cheklanmaydi. Bitim tomonlarning huquqiy tengligi, yetarli va ishonchli axborotga egaligi, erkin tanlov imkoniyati, shartnoma shartlarining oshkoraligi hamda tovar yoki xizmat qiymatining narxga muvofiqligi ta'minlangan sharoitdagina adolatli xususiyat kasb etadi. Agar subyekt iqtisodiy nochorlik, axborot yetishmasligi yoki muqobil tanlovning mavjud emasligi sababli nomaqbul shartlarga rozi bo'lsa, bitim rasman ixtiyoriy ko'rinsa-da, uni to'liq adolatli deb bo'lmaydi.

Tahlillar natijasida taqsimot va ayirboshlash jarayonidagi iqtisodiy adolatni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: iqtisodiy adolat — iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarining xolisligi, yaratilgan qiymat va olingan daromad o'rtasidagi mutanosiblik, ayirboshlash jarayonlarining ekvivalentligi hamda iqtisodiy

natijalarning inson real farovonligiga aylanishini ta'minlovchi iqtisodiy va institutsional munosabatlar tizimidir.

Ushbu ta'rif iqtisodiy adolatni faqat yakuniy daromadlar taqsimoti emas, balki imkoniyat, jarayon va natijalar birligi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijasida iqtisodiy adolatni baholashning uch o'lchovli modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Kirishdagi adolat — shaxslarning ta'lim, kasb, mehnat, moliyaviy resurslar, mulk, axborot, tadbirkorlik va bozor infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bunda barcha subyektlar natijalarining bir xil bo'lishi emas, balki ularning iqtisodiy faoliyatni boshlash uchun adolatli dastlabki sharoitlarga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Jarayondagi adolat — daromadlarni shakllantirish, taqsimlash va ayirboshlash jarayonlarida qoidalarining barcha uchun teng qo'llanilishi, raqobat muhitining mavjudligi, mehnat va natija o'rtasidagi mutanosiblik, mulk huquqi va shartnomalarning himoya qilinishi, axborotning ochiqqligi hamda kamsitishga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

Natijadagi adolat — iqtisodiy faoliyat natijalarining aholi real daromadi, iste'mol imkoniyatlari, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy xavflardan himoyalash va munosib turmush kechirish imkoniyatiga ta'sirini qamrab oladi. Natijadagi adolat mutlaq daromadlar tengligini emas, balki iqtisodiy jihatdan asoslanmagan kambag'allik, daromadlar o'rtasidagi haddan tashqari tafovutlar hamda insonning asosiy iqtisodiy imkoniyatlardan mahrum bo'lishining oldini olishni nazarda tutadi.

Agar iqtisodiy faoliyatga kirish imkoniyatlari notekis bo'lsa, keyingi jarayonda rasmiy jihatdan teng qoidalarining mavjudligi adolatli natijani kafolatlamaydi. Xuddi shuningdek, dastlabki imkoniyatlar teng bo'lgan taqdirda ham monopoliya, axborot asimmetriyasi yoki shartnomaviy ustunlik jarayondagi adolatni buzishi mumkin. Shu bois uchala o'lchov bir-birini to'ldiruvchi va taqozo etuvchi elementlar sifatida baholanishi lozim.

Tadqiqot davomida iqtisodiy tengsizlikning kelib chiqish manbalarini aniqlash maqsadida uning quyidagi turlari ajratildi:

Samaradorlikka asoslangan tengsizlik. Mehnat unumdorligi, malaka, kasbiy mas'uliyat, innovatsion faollik, sarmoya va tadbirkorlik tavakkalchiligidagi farqlar natijasida vujudga keladi. Bunday tengsizlik iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi mumkin va muayyan chegara doirasida asoslangan hisoblanadi.

Imkoniyatlarga bog'liq tengsizlik. Sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy resurslar, infratuzilma, axborot va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarining notekisligi natijasida shakllanadi. U shaxsning harakati va iqtisodiy hissasidan tashqari omillarga bog'liq bo'lgani uchun adolat nuqtai nazaridan muammoli hisoblanadi.

Institutsional tengsizlik. Qonun va qoidalarining tanlab qo'llanilishi, ma'muriy to'siqlar, monopol imtiyozlar, norasmiy munosabatlar, mulk huquqining yetarli darajada himoya qilinmasligi yoki bozor qudratining konsentratsiyalashuvi natijasida yuzaga keladi.

Ushbu tipologiya tengsizlikning faqat miqdoriy darajasini emas, balki uning sifat xususiyati va kelib chiqish manbasini baholash imkonini beradi. Samaradorlikka asoslangan daromad farqi bilan institutsional imtiyozlar natijasida yuzaga kelgan tafovutga bir xil yondashuvni qo'llash iqtisodiy rag'batlarni zaiflashtirishi yoki adolatsizlikni saqlab qolishi mumkin.

Daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolatni kompleks baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etilmoqda:

— iqtisodiy resurslar va faoliyat turlaridan foydalanish imkoniyatlarining ochiqqligi hamda tovar, xizmat, narx va shartnoma shartlari haqidagi axborotning to'liqligi;

— daromad bilan mehnat, malaka, kapital va tavakkalchilik o'rtasidagi mutanosiblik;

— qonunlar, soliqlar va iqtisodiy qoidalarining barcha subyektlarga teng tatbiq etilishi, iqtisodiy subyektlarning mulkiy va shartnomaviy huquqlari himoyalanganligi;

— bozorga kirishda sun'iy to'siqlarning mavjud emasligi, raqobat muhiti va monopol ustunliklarning cheklanganligi;

— ayirboshlashda olingan va berilgan iqtisodiy qiymatning o'zaro muvofiqligi, nominal daromadning real iste'mol va farovonlik imkoniyatlariga aylanish darajasi.

Adolatli differentsiatsiyaning maqbul chegarasi bo'lishi kerak. Tahlillar iqtisodiy adolat mutlaq tenglik bilan bir xil tushuncha emasligini tasdiqlaydi. Mutlaq tenglashtirish mehnat, bilim, investitsiya, innovatsiya va tavakkalchilikka rag'batni kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, daromad va boyliklarning haddan tashqari konsentratsiyalashuvi iqtisodiy imkoniyatlar tengligini cheklaydi, raqobatni susaytiradi va kam daromadli qatlamlarning inson kapitaliga sarmoya kiritish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy adolatning maqbul chegarasi ikki talab o'rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi: birinchidan, yuqori unumdorlik, malaka, innovatsiya va tavakkalchilik munosib rag'batlantirilishi; ikkinchidan, daromad farqlari insonning asosiy huquq va imkoniyatlarini cheklaydigan, avloddan avlodga o'tadigan yoki institutsional ustunlikni mustahkamlaydigan darajaga yetmasligi lozim.



Demak, iqtisodiy farqlar quyidagi shartlar mavjud bo'lganda asoslangan deb baholanishi mumkin: ular qonuniy iqtisodiy faoliyat va real hissa natijasida shakllangan bo'lsa; barcha subyektlar uchun ochiq imkoniyatlar sharoitida yuzaga kelsa; raqobat va shartnoma erkinligini buzmasa; jamiyatning boshqa a'zolarini asosiy iqtisodiy imkoniyatlardan mahrum qilmasa. Iqtisodiy adolatni faqat yakuniy daromadlar taqsimoti asosida baholash uning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Daromadlar taqsimoti natijasi subyektlarning dastlabki imkoniyatlari, iqtisodiy jarayonlardagi qoidalar, bozor qudrati, axborotga egalik va ayirboshlash shartlari bilan bog'liq.

Shuning uchun iqtisodiy adolatni baholashda uchta o'zaro bog'liq savolga javob berish lozim: iqtisodiy faoliyatni boshlash imkoniyatlari qay darajada adolatli; daromadlarni shakllantirish va ayirboshlash jarayonlari qay darajada xolis; shakllangan natijalar insonning real farovonligi va kelgusi imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Natijada daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolat teng imkoniyat, munosib rag'bat, adolatli institutlar, shaffof ayirboshlash, huquqiy himoya va barqaror farovonlikning o'zaro uyg'unligi sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlarida iqtisodiy adolatni faqat aholi daromadlarining yakuniy nisbati yoki tengsizlik ko'rsatkichlari asosida baholash yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy adolat daromadlarning shakllanishi, taqsimlanishi va ayirboshlash jarayonida real ne'matlar hamda farovonlikka aylanishini qamrab oluvchi yaxlit iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida qaralishi lozim.

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, daromadlar differentsiatsiyasi bozor iqtisodiyotining obyektiv xususiyati bo'lib, uning mavjudligi o'z-o'zidan adolatsizlikni anglatmaydi. Mehnat unumdorligi, malaka, innovatsion faollik, sarmoya, mas'uliyat va tadbirkorlik tavakkalchiligidagi farqlar asosida shakllangan daromad tafovutlari iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi mumkin. Iqtisodiy imkoniyatlarning notekisligi, institutsional imtiyozlar, monopol mavqe, axborot ustunligi va bozorga kirish to'siqlari natijasida vujudga kelgan tafovutlar esa asoslanmagan tengsizlik xususiyatiga ega.

Ikkinchidan, taqsimot va ayirboshlash adolati o'zaro uzviy bog'langan. Adolatli shakllangan nominal daromad ham inflyatsiya, iqtisodiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan narxlar, tovar va xizmatlar sifatining pastligi, bozor konsentratsiyasi, axborot asimmetriyasi yoki nomutanosib shartnoma shartlari ta'sirida o'zining real qiymatini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun iqtisodiy adolatni baholashda daromadning miqdori bilan bir qatorda uning xarid qobiliyati va real farovonlikka aylanish darajasi ham hisobga olinishi zarur.

Uchinchidan, iqtisodiy adolatni kirishdagi, jarayondagi va natijadagi adolatdan iborat uch o'lchovli model asosida baholash maqsadga muvofiq. Kirishdagi adolat iqtisodiy resurslar va imkoniyatlardan foydalanish sharoitlarini; jarayondagi adolat qoidalar, raqobat, taqsimot va ayirboshlash mexanizmlarining xolisligini; natijadagi adolat esa iqtisodiy jarayonlarning inson real farovonligiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu o'lchovlardan biridagi jiddiy nomutanosiblik butun iqtisodiy tizimning adolatlilikini pasaytiradi.

To'rtinchidan, iqtisodiy tengsizlikni samaradorlikka asoslangan, imkoniyatlarga bog'liq hamda institutsional tengsizlikka ajratish uning kelib chiqish manbalarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa barcha daromad farqlariga bir xil yondashuv qo'llash o'rniga, ularning sabablari va oqibatlariga mos iqtisodiy choralarni tanlash uchun nazariy asos yaratadi.

Beshinchidan, iqtisodiy adolat mutlaq tenglikni emas, balki iqtisodiy samaradorlik, munosib rag'bat va teng imkoniyatlar o'rtasidagi maqbul muvozanatni anglatadi. Daromadlar tafovuti iqtisodiy hissaga mutanosib, qonuniy va ochiq raqobat sharoitida shakllangan, shuningdek, boshqa subyektlarning asosiy iqtisodiy imkoniyatlarini cheklamagan holdagina adolatli differentsiatsiya sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Iqtisodiy adolatni baholash metodologiyasini kengaytirish, ya'ni daromadlar tengsizligi, kambag'allik darajasi va aholi daromatlari dinamikasi bilan bir qatorda iqtisodiy imkoniyatlar, institutsional tenglik, bozor raqobati, axborot shaffofligi, ayirboshlash ekvivalentligi va real farovonlik ko'rsatkichlarini qamrab oluvchi kompleks baholash tizimini shakllantirish lozim.

Teng imkoniyatlar institutini mustahkamlash, ya'ni sifatli ta'lim, tibbiy xizmat, mehnat bozori, moliyaviy resurslar, raqamli infratuzilma va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanishda hududiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish iqtisodiy adolatning dastlabki sharti sifatida qaralishi zarur.

Ayirboshlash munosabatlarida adolat mezonlarini kuchaytirish, ya'ni raqobatni qo'llab-quvvatlash, iste'molchilarga to'liq va ishonchli axborot taqdim etish, shartnoma shartlarining oshkoraligini ta'minlash, iqtisodiy jihatdan asoslanmagan narx ustamallari hamda bozor ustunligidan noxolis foydalanish holatlarini cheklashga qaratilgan institutlarni takomillashtirish lozim.



Umuman, daromadlar taqsimoti va ayirboshlash munosabatlaridagi iqtisodiy adolat samaradorlik va tenglik o'rtasidagi oddiy murosa emas, u iqtisodiy samaradorlik, inson qadri, erkinlik, teng iqtisodiy imkoniyatlar, hissa va mukofot mutanosibligi, barcha uchun teng ishlaydigan institutlar, shaffof va ekvivalent bozor ayirboshlash hamda iqtisodiy natijalarning barqaror farovonlikka aylanishi birligida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv iqtisodiy adolatning nazariy mazmunini kengaytiradi va uni baholash hamda ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ролз, Дж. Теория справедливости / Дж. Ролз ; пер. с англ. ; науч. ред. и предисл. В. В. Целищева. — 2-е изд. — Москва : Издательство ЛКИ, 2010. — 536 с.
2. Нозик, Р. Анархия, государство и утопия / Р. Нозик ; пер. с англ. Б. Пинскера ; под ред. Ю. Кузнецова, А. Куряева. — Москва : ИРИСЭН, 2008. — 424 с. — (Политическая наука).
3. Sen, A. *The Idea of Justice* / A. Sen. — Cambridge, MA : The Belknap Press of Harvard University Press, 2009. — 496 p.
4. Piketty, T. *Capital in the Twenty-First Century* / T. Piketty ; translated by A. Goldhammer. — Cambridge, MA : The Belknap Press of Harvard University Press, 2014. — 704 p.
5. Stiglitz, J. E. *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future* / J. E. Stiglitz. — New York : W. W. Norton & Company, 2012. — 448 p.
6. Ajemo'g'li, D. *Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari* / D. Ajemo'g'li, J. A. Robinson ; tarjimon S. Muhammadsoliyev. — Toshkent : Asaxiy Books, 2023. — 676 b.
7. United Nations Development Programme. *Human Development Report 2023/2024: Breaking the Gridlock: Reimagining Cooperation in a Polarized World*. — New York : UNDP, 2024. — 324 p.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100